



SOLIQ RISKLARINI BOSHQARISHNING MILLIY VA XALQARO MENEJMENT TAJRIBASI

Abdusattarova Dildora Bohodirovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Soliqlar va Sug'urta ishi kafedrası o'qituvchisi

d.abdusattarova@tsue.uz

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7848673>

ARTICLE INFO

Received: 11th April 2023

Accepted: 19th April 2023

Online: 20th April 2023

KEY WORDS

Soliq menejmenti, soliq risklari, soliqlarga tortish, xalqaro tajriba, korxona soliqlari, daromadlar.

ABSTRACT

Maqolada soliq menejmenti sohasiga oid eng asosiy jihatlardan bo'lgan risklarni nazorat qilish va boshqarish, bu boradagi nostandart va standart xalqaro tajribalar, meyorlar statistik ma'lumotlar va qilingan ilmiy ishlarga asosan bayon etilgan.

KIRISH

Hozirgi davrga kelib kunga kelib mamlakatimizda soliq tizimini yanada takomillashtirish, soliqlarni rag'batlantiruvchi rolini oshirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.¹ Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasidagi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish nomli uchinchi ustuvor yo'nalishida soliq yukini kamaytirish va soliqlarga tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish, investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga investitsiyalarni faol jalb qilish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.²

dasdasda³

Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek: "Barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqlarga tortiladigan bazani kengaytirish zarur"⁴. Davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati - insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish O'zbekiston

¹ Mamadaminov Nazar Yusupovich, "Soliq risklarini boshqarishning xalqaro tajribasi" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil 1-b

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni.

³ Элмирзаев Самариддин Эшкүватович Корпоратив молиявий муносабатларда солиқларни режалаштириш масалалари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2018. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/korporativ-moliyaviy-munosabatlarda-soli-larni-rezhalashtirish-masalalari> (дата обращения: 17.04.2023).

⁴ Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan – Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. // Xalq so'zi. 2017 yil 22 dekabr.



Respublikasi soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanishi belgilangan⁵.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodchi olim Garbarino fikriga ko'ra, soliqlar korxonalar uchun jiddiy xarajat hisoblanadi. Shuning uchun soliqlarni kamaytirish daromadlilikni oshiradi. Soliqlar boshqa operatsion xarajatlar kabi kamayishi mumkin bo'lgan boshqariladigan xarajaddir. Korxonalar miqyosida soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarishning ahamiyatini soliqlar va majburiy ajratmalarni tejash orqali xo'jalik sub'ektlari iqtisodiy taraqqiyoti va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda o'z aksini topadi. «Korporativ soliq menejmenti 2 korxona va tashkilotlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, soliq to'lovchi tomonidan soliq yukini kamaytirishning qonuniy vositasidir»⁶.

Korxonalarda soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarishning muhim yo'nalishlaridan biri soliqlarni rejalashtirish hisoblanadi. Soliqlarni rejalashtirish tushunchasi ayrim iqtisodchi olimlar tomonidan 3 Xo'jalik sub'ektlarida soliqlarni rejalashtirish 4 xo'jalik sub'ektlari yagona iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi doirasidagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini boshqarishning ajralmas qismi bo'lib, resurslarning cheklanganligi sharoitida korxonaning kelajakdagi moliyaviy holatini belgilash uchun optimal qonuniy soliq to'lash usullari va metodlaridan hamda soliq to'lashning mumkin bo'lgan muqobil variantlaridan foydalanish tizimidagi jarayonlarni o'zida aks ettiradi 5 deb ta'kidlansa, rus olimlari 6 qonuniy taqdim etilgan imtiyozlardan foydalanish orqali soliqlarni aylanib o'tishning qonuniy usullari va soliq majburiyatlarini kamaytirish yo'llari 7 sifatida talqin etishadi⁷.

Yana ayrim iqtisodchilar tomonidan esa 8 soliqlarni rejalashtirish tashkilotning moliyaviy resurslarini oshirishga, soliq bazasi tarkibi va miqdorini tartibga solishga, boshqaruv qarorlari samaradorligiga ta'sir etishga hamda amaldagi qonunchilik bo'yicha budget bilan hisob-kitoblarni o'z vaqtida ta'minlashga yo'naltirilgan rejali faoliyatlar yig'indisi sifatida 9, inglizcha-ruscha bank ensiklopedik lug'atida 10 moliyaviy rejalashtirishning tarkibiy qismi bo'lgan soliq to'lovlarini kechiktirish natijasida investitsiyalarga ega bo'lish, soliqqa tortilmaydigan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va boshqa turli xil soliqlardan qochish yo'llaridan foydalanishni rejalashtirish orqali soliq yukini minimallashtirish 11 sifatida, biznes atamalar lug'atida 12 joriy va kelgusi davrlarda soliq majburiyatlarini minimallashtirishga yo'naltirilgan turli xil soliqqa tortishning muqobil variantlarini tizimli tahlil qilish 13 deb tarif berilgan⁹.

1-jadval. Soliqlarni joriy rejalashtirishning tashkiliy jihatlar va samaradorligini baholash mezonlari.¹⁰

No	Tashkiliy jihatlar	E'tibor qaratiladigan masalalar
1.	Umumiy tartibda tashkiliy	Hisobot davri asosida soliq qonunchiligi monitoringi

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802 qarori.

6 Сердюков А.Э., Вылкова Е.С., Тарасевич А.Л. Налоги и налогообложение. – Санкт-Петербург.: «Питер», 2018. - 502. С

7 Федоров Б.Г. Англо-русский банковский энциклопедический словарь. СПб.: "Лимбус Пресс", 2015. - стр. 263

8 Евстигнеев Е.Н. Основы налогового планирования. – Санкт-Петербург.: «Питер», 2004. –. 196С

9 Fridman J.P. biznes atamalar lug'ati. "Barrons edukational series", 2000. –. 736 S.

10 Muallif tomonidan tuzilgan



	jihatlari	Boshqa faoliyat turlarini va operatsiyalarni kuzatib borish Kutilayotgan ichki o'zgarishlar asosida soliqlarni rejalashtirish Tashqi muhitda kutilayotgan o'zgarishlar asosida soliqlarni rejalashtirish
2.	Xususiy tartibda tashkiliy jihatlari	Har bir soliq turi bo'yicha soliq bazalarini tahlil qilib borish Soliq qonunchiligi asosida hisob siyosatini ishlab chiqish Alohida tartibda soliq hisobini tashkil etish va yuritish Soliq majburiyatlari ijrosini rejali tartibda nazorat qilib borish
3.	Samarali tuzilmalar yaratish va ular ish faolligini oshirish	Tezkor va aniq axborotlar bilan ta'minlash Aniq tahlil qilish imkonini beruvchi dasturiy vositalar bilan ta'minlash Soliq organlari bilan doimiy aloqani ta'minlovchi ishchi muhit yaratish Natijaga yo'naltirilgan rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish
4.	Baholash mezonlarini belgilash	Soliqlarni rejalashtirish orqali tejalgan mablag'lar miqdorini aniqlash Soliq risklari yuzaga kelishi natijasidagi zararlarni baholash Soliqlarni rejalashtirishni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarni belgilash Soliqlarni rejalashtirish natijasida olingan qo'shimcha foyda yoki qo'shimcha xarajat natijasidagi zarar

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari sifatida korporativ soliq menejmentini samarali tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan quyidagi ilmiy xulosalarni keltirishimiz mumkin.¹¹

1. Korxonalarda soliq menejmentini tashkil etishda davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi soliqlar bo'yicha manfaatlar to'qnashuvi va o'zaro qarama-qarshilikni hisobga olishi kerak. Zero davlat imkon qadar ko'proq soliq undirishga intiladi, soliq to'lovchilar esa imkon qadar soliqlarni kamroq to'lashga yoki umuman to'lamaslikka harakat qiladi. Bunda soliq to'lovchi moliyaviy qonunchilik buzilishiga yo'l qo'yishi jiddiy moliyaviy yo'qotishlarga sabab bo'lishini unutmazlik talab etiladi.

2. Korxonalarda soliqlarni rejalashtirish amaliyotini tashkil etishda soliqli vaziyatlardan kelib chiqqan holda strategik rejalashtirish, soliq imtiyozlaridan samarali foydalanishga qaratilgan joriy rejalashtirish, soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lashga qaratilgan, shuningdek shartnomaviy munosabatlarni hisobga oluvchi operativ rejalashtirish tarzida tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Korxonalarda amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalar va ular bo'yicha hisoblanadigan soliqlarni to'lash muddatlaridan kelib chiqqan holda har oy yoki chorak bo'yicha soliq budjetini tuzib chiqish lozim. Bunda tuzib chiqilgan soliq budjeti soliqlarning o'z vaqtida to'lanishiga xizmat qilishi bilan bir vaqtda soliqlar bo'yicha boqimandalik holatlarining ham kamayishiga xizmat qiladi.

¹¹ S.E. Elmiraev "KORPORATIV SOLIQ MENEJMENTINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2015 yil 7-b



4. Har bir moliya yilining oxirida soliq qonunchiligiga ko'plab o'zgarishlar kiritilishi natijasida moliya yilining birinchi choragida soliq xatolari va risklarining yuzaga kelishi ko'proq ko'zga tashlanadi. Buning oldini olish uchun davlat budjeti parametrlarini kuchga kirish muddatidan kamida bir oy oldin matbuotda e'lon qilinishini tashkil etish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Soliq risklari va ularni korporativ boshqarish umumiy soliq menejmentida quyidagich ijobiy o'rin egallaydi deb hisoblaymiz va mazkur tavsiyalarni taqdim etamiz:

- korporativ tuzilmalarda yuzaga keladigan soliq oqibatlarini baholash soliq majburiyatlarini o'zini aniqlash va bajarishga imkon beradi;
- mahalliy miqyosda soliqlar rejalashtirishda umumiy tartibda hisobot davri asosida soliq qonunchiligi monitoringi, boshqa faoliyat turlari va operatsiyalarni kuzatib borish, kutilayotgan ichki o'zgarishlar asosida soliqlarni rejalashtirish, tashqi muhitda kutilayotgan o'zgarishlarni hisobga olish kabilarga e'tibor qaratish lozim hisoblanadi;
- soliq risklarini rejalashtirishda xususiy tartibda har bir soliq turi bo'yicha soliq bazalarini tahlil qilib borish, soliq qonunchiligi asosida hisob siyosatini ishlab chiqish, alohida tartibda soliq hisobini tashkil etish va yuritish, soliq majburiyatlari ijrosini rejali tartibda nazorat qilib borish kabilar soliq majburiyatlarining belgilangan tartibda bajarilishini ta'minlaydi;

soliqlarni rejalashtirish amaliyotining tezkor va aniq axborotlar bilan ta'minlanishi, aniq tahlil qilish imkonini beruvchi dasturiy vositalar bilan ishlash, muammoli masalalarni hal qilish yuzasidan soliq organlari bilan doimiy aloqani ta'minlovchi ishchi muhit yaratilishi, natijaga yo'naltirilgan rag'batlantirish tizimining amal qilishi faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

References:

1. Mamadaminov Nazar Yusupovich, "Soliq risklarini boshqarishning xalqaro tajribasi" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil 1-b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni.
3. Элмирзаев Самариддин Эшкуватович Корпоратив молиявий муносабатларда солиқларни режалаштириш масалалари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2018. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/korporativ-moliyaviy-munosabatlarda-soli-larni-rezhalashtirish-masalalari> (дата обращения: 17.04.2023).
4. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan – Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. // Xalq so'zi. 2017 yil 22 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802 qarori.
6. Сердюков А.Э., Вылкова Е.С., Тарасевич А.Л. Налоги и налогообложение. – Санкт-Петербург.: «Питер», 2018. - 502. С
7. Федоров Б.Г. Англо-русский банковский энциклопедический словарь. СПб.: "Лимбус Пресс", 2015. - стр. 263
8. Евстигнеев Е.Н. Основы налогового планирования. – Санкт-Петербург.: «Питер», 2004. -. 196С



9. Fridman J.P. biznes atamalar lug'ati. "Barrons edukational series", 2000. –. 736 S.
10. S.E. Elmirzaev "KORPORATIV SOLIQ MENEJMENTINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2015 yil 7-b
11. www.fvv.uz
12. www.aim.uz
13. www.ziyonet.uz